

Tarbiya

2



Taqrizchilar:

Sh.T.Rizayev – Kinematografiya agentligi bosh direktori o'rinbosari, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;

B.N.Karimov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;

Sh.O.Ergasheva – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi, filologiya fanlari nomzodi.

Shartli belgilar:



**Yangi ma'lumotni
o'rganing**



**Savol va
topshiriqlar**



**Vaziyatni
o'rganing**



**Ijodiy
topshiriq**



**Uy
vazifasi**



Bu – qiziq!



**Topshiriqni
bajaring**



**Og'zaki
topshiriq**



**Guruh bo'lib
ishlang**



**Eslab
qoling**



**Xalq
o'g'itlari**



**Tabiatni
asrang**

Aziz o'quvchi!

Siz yana bir yoshga ulg'aydingiz.

O'tgan yili ko'p narsalarni o'rganib, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldingiz.

Bu yil esa yanada ko'proq ilmlarni egallaysiz, chunki yildan yilga imkoniyatingiz doirasi kengayib, kuchingizga kuch, zehningizga zehn qo'shilib boryapti.

"Tarbiya" darstarida ishonch, hurmat, o'zaro yordam, hamjihatlik, do'stlik kabi fazilatlar bilan yanada yaqinroq tanishasiz, o'lkamizning madaniyatini, boy merosini o'rganasiz.

Darlarda har xil vaziyatlarni tahlil qilib, ularga duch kelganda qanday yo'l tutishni bilib olasiz.

"Tarbiya" fanini ixlos va qunt bilan o'rganing.

Bu o'quv yili siz uchun quvonchli, samarali va yutuqlarga boy bo'lsin!



I bo'lim. Men va mening Vatanim

1-dars

VATANIM – FAXRIM

*Bu yerda tug'ilgansan, yashaysan,
ketsang – sog'inasan. Top-chi, bu
qayer?*



Bu – Vatan.
Vatanimiz haqida nimalarni bilamiz?
O'zbekiston Respublikasining qanday
ramzlari bor?

Davlatimiz rahbari kim?
O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?



Keling, 1-sinfda olgan bilimlarimizni eslaymiz.
Biz tug'ilgan joy Vatan deb ataladi. Vatanimizni
sevamiz, uzoqqa ketsak, darrov sog'inib qolamiz.



1. Nega Vatan har birimiz uchun aziz?
2. O'zbekiston nimalari bilan mashhur?
3. "Ona yurtning – oltin beshiging" maqolini qanday tushunasiz?



Vatanparvar shoh

Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur shoh va shoir sifatida mashhur. U Sohibqiron Amir Temur avlodidan bo'lib, 12 yoshida taxtga o'tirgan. Bobur Hindistonni zabt etib, u yerda qudratli davlat tuzgan. Boburiylar saltanati uch yuz yil hukm surgan.

Vatanini sog'ingan podshoh ona yurtidan tok qalamchasi va qovun urug'ini keltirishni buyurib, Hind tuprog'iga ektirdi. Lekin uzum va qovunning mazasi vatanidagi kabi shirin bo'lmadi.

Bir kuni Bobur mirzoga ona yurti Andijondan qovun olib kelishdi. Podshoh qovunni hidlab, to'yib-to'yib yig'ladi.



1. Nima uchun Bobur mirzo qovunni hidlab, yig'lab yubordi?
2. Vatan tuyg'usi yana qanday namoyon bo'lishi mumkin?
3. Sizningcha, o'zga yurtida yurgan odamning Vatanga bo'lgan muhabbati qanday namoyon bo'ladi?



O'zbekiston Respublikasi 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashkil topgan. Mamlakatimizda go'zal shahar va so'lim qishloqlar juda ko'p. Biz yashayotgan viloyat, shahar yoki qishloq – bizning kichik Vatanimizdir.



Buxoro Islom olamining asosiy markazlaridan biridir. Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti 2020-yilda Buxoroni Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qildi.



O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xiva kabi qadimiy shaharlari UNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.



Xaritadan o'zingiz yashaydigan viloyatni toping.
Bu viloyatda yana qanday shahar va qishloqlar bor?



O'zingiz yashab turgan joy tarixi haqida kichik hikoya tayyorlang. Kerakli ma'lumotlarni to'plash uchun yaqinlaringizdan intervyu oling.

MAKTAB NIMA UCHUN KERAK?

Madina, nima uchun biz yana maktabga keldik? Axir biz o'qishni, yozishni va hisoblashni bilib oldik-ku.



Akmal, o'rganishimiz kerak bo'lgan qiziqarli narsalar juda ko'p. Bunda bizga maktab va ustozlarimiz yordam beradi.

Men matematikani juda yaxshi ko'raman. Keyin koinotga, yulduzlarga ham qiziqaman.



Demak, senga astronomiya fanini o'rganish ham yoqadi. Men esa kompyuter savodxonligi bo'yicha darslar boshlanishini kutayman.



Siz nimalarga qiziqasiz?





Odamlar qadimdan atrofdagi olam haqida bilishga qiziqib, uni kuzatganlar, savollariga javob topishga intilganlar. Vaqt o'tishi bilan bu izlanishlar natijasida yangi fanlar paydo bo'lgan. Ilm-fan bilan shug'ullanadigan insonlar olimlar deyiladi.

Astronomlar yulduzlarni kuzatadilar va koinotni o'rganadilar. Geograflar Yerni, ya'ni biz yashayotgan sayyorani o'rganadilar. "Geografiya" so'zi yunon tilida "yerni tasvirlamoq" degan ma'noni anglatadi. Biologlar tirik tabiatni, tarixchi olimlar esa odamlarning o'tmishdagi va hozirgi hayotini o'rganadilar. Fiziklar tabiat qonunlari, kimyogarlar esa moddalar xususiyatlari haqida izlanadilar.



Rasmlarga qarang. Bu kashfiyotlar uchun qaysi fanlar asos bo'lgan?



Velosiped



Telefon



Antiseptik



To'rtburchak tarvuz

MUNDARIJA

I bo'lim. Men va mening Vatanim

1-dars.	Vatanim – faxrim	4
2-3-darslar.	Maktab nima uchun kerak?	7
4-dars.	O'qituvchi va o'quvchilar	12
5-6-darslar.	Maktabga yo'l	16
7-dars.	Jamoat transportida	22
8-dars.	Takrorlash	26

II bo'lim. Men va mening do'stlarim

9-10-darslar.	Men va mening sinfdosh do'stlarim	28
11-dars.	Bir-birimizni tushunishni o'rganamiz	35
12-13-darslar.	Bir-birimizga yordam beramiz	39
14-15-darslar.	Ishonamiz va tekshiramiz	45
16-dars.	Takrorlash	50

III bo'lim. Men va mening fazilatlarim

17-18-darslar.	Men – insonman	52
19-20-darslar.	Mehr-oqibat nima?	57
21-dars.	Halollik nima?	62
22-23-darslar.	Hurmat va xushmuomalalik	66
24-dars.	Sog'lom turmush tarzi	72
25-dars.	Takrorlash	74

IV bo'lim. Men va an'analar

26-dars.	Mehmondo'stlik	76
27-dars.	Hamkorlik an'analari	80
28-dars.	Kitob – eng yaxshi do'stimiz!	86
29-dars.	Bizga telefon, televizor, kompyuter nima uchun kerak?	91
30-31-darslar.	Madaniyat va ta'lim	94
32-dars.	Ochiq osmon ostidagi muzey	99
33-dars.	Jamoat joylarida bo'lish odobi	103
34-dars.	Takrorlash	106

veb-saytimiz: Zokirjon.com

***Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.***

Zokirjon Admin bilan

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram
orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob
beriladi***

***2-sinf tarbiya kitobini to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.***

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**